

Yoshlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha davra suhbatini bo'lib o'tdi

Joriy yilning 25-oktabr kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida yoshlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi magistraturasi tinglovchilari podpolkovnik Baxramov Akmal Abdulxayevich, podpolkovnik Aydarov Arman Agzamxanovich, TTPU rahbariyati va 300 ga yaqin talabalari ishtirok etdi.

□Tadbir davomida narkotik va psixotrop moddalar iste'moli turli yomon oqibatlariga olib kelishi, diniy aqidaparastlik va ekstremistik oqimlariga kirmaslik, kiberjinoyatchilar tuzog'iga tushib qolmaslik, xususan, shaxsiy ma'lumotlarni begona insonlarga taqdim etmaslik, tavakkalchilikka asoslangan turi xil qimor o'yinlarida ishtirok etmaslik haqida so'z bordi va yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan shu kabi huquqbuzarlik va jinoyatlarni video materiallar bilan hayotiy misollar keltirib, talabalarni ogohlikka chaqirildi. Shuningdek, mavzu yuzasidan talabalar tomonidan berilgan savol, taklif hamda mulohazalari tinglanib, ularga aniq javob va ko'rsatmalar berildi.

□Davra suhbatini so'ngida 25-oktyabr – O'zbekiston ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan mehmonlar va universitetda xizmat olib borayotgan xodimlariga tabrik bildirilib esdalik sovg'alari topshirildi.









